

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA EMPATIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Mambetkarimova Indira Polatbaevna

Nukus davlat pedagogika instituti 2-kurs doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20917974>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada pedagogik empatiyaning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni va bo'lajak o'qituvchilarda empatik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy usullari ko'rib chiqilgan. O'qituvchi empatiyasining o'quvchilar ruhiy salomatligi, ta'lim faolligi va motivatsiyasiga ijobiy ta'siri asoslab berilgan. Refleksiya va rollar almashinuvi metodlari bo'lajak o'qituvchilarda empatik ko'nikmalarni shakllantiruvchi samarali vosita sifatida tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: empatiya, pedagogik empatiya, o'qituvchi kompetentligi, ruhiy salomatlik, ta'lim faolligi, motivatsiya, refleksiya metodi, rollar almashinuvi.

Hozirgi davrda ta'lim sohasidagi yangilanishlar va rivojlanish jarayonlari pedagog shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablarni yanada kuchaytirmoqda. Zamonaviy o'qituvchi faqat bilim beruvchi mutaxassis sifatida emas, balki o'quvchilarning hissiy holati va individual ehtiyojlarini anglay oladigan, ularga nisbatan samimiy munosabatda bo'ladigan shaxs sifatida ham faoliyat yuritishi lozim. Shu sababli empatiya, ya'ni insonning boshqalarning his-tuyg'ulari va kechinmalarini tushunishi hamda ularga hamdardlik bilan yondasha olishi, pedagogik faoliyatda muhim kasbiy kompetensiyalardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatda empatiya ishonch va xavfsiz psixologik muhitning asosiy sharti sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim samaradorligi faqat dars mazmuni yoki rejasining puxtaligiga bog'liq bo'lmay, o'quvchi o'z fikrini bemalol ayta olishi, mustaqil fikrlashi va jarayonga faol kirishishi uchun qulay shart-sharoit yaratilishiga ham ko'p jihatdan bog'liq. Bunday muhitni shakllantirish esa o'z navbatida pedagogning o'quvchiga hurmat, diqqat-e'tibor va hissiy sezuvchanlik bilan yondashuvini talab etadi.

V.A. Suxomlinskiy (1977) o'zining pedagogik qarashlarida bolaning ichki dunyosiga yo'l topishning yagona usuli uning kechinmalarini chuqur anglash va ularga ehtirom ko'rsatishda ekanini ta'kidlagan. Pedagogikaning bosh vazifasi shaxsni har tomonlama kamol toptirish bo'lsa, bu yo'lda o'quvchining his-tuyg'ularini tushunish va unga bo'lgan hurmat eng ishonchli tarbiyaviy vosita sifatida xizmat qiladi. Ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchining bilimi va o'quvchi bilan ishlash mahorati, bir-birini tushunishi va birgalikda harakati muhim omil hisoblanadi.

Joshua Ampofol, Geoffrey Bentum-Mika o'z tadqiqotlarida o'qituvchi empatiyasi o'quvchilarning ruhiy salomatligiga bevosita va bilvosita ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatib o'tgan. O'qituvchi o'z o'quvchilarini tushunsa, ularning his-tuyg'ulariga hamdardlik bildirsa, O'quvchilar darsda faolroq qatnashsa, o'quvchilarning darsdagi faolligi orqali o'quvchilarda stress, xavotir va depressiya kamayadi va o'z aro ishonch va hamkorlik ko'nikmalari shakllanadi.¹ Buning natijasida o'quvchilarda o'ziga ishonch, bilim olishga intilish - motivatsiya shakllanadi. Motivatsiya esa o'quvchini harakatga undovchi, uni maqsad sari yo'naltiruvchi, bilim olishga undovchi ichki kuchdir. Bu kuch o'quvchilarni o'z maqsadlari sari yo'naltirilishida o'qituvchining asosiy quroliga aylanadi.

¹ Ampofol J, Bentum-Micah G, Xusheng Q, Sun B and Mensah Asumang R (2025) Exploring the role of teacher empathy in student mental health outcomes: a comparative SEM approach to understanding the complexities of emotional support in educational settings. *Front. Psychol.* 16:1503258. doi: 10.3389/fpsyg.2025.1503258

Ta'lim jarayonida empatiyali o'qituvchi ruhiy salomatlikmni saqlab qolmay, balki o'quvchida motivatsiya uyg'otishi ham mumkinligi va bu ta'lim samaradorligini oshirishining ustuni ekanligi tadqiqotchilar tomonidan isbotlangan.² Shunday ekan o'qituvchilarda empatiyani rivojlantirishning ta'lim tizimidagi o'rnini to'g'ri baholagan holda ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar empatiyasini rivojlantiruvchi usullar, mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. "Refleksiya" metodini qo'llash orqali bo'lajak o'qituvchilar o'z o'zini tahlil qilish orqali bilim va malakalari ustida ishlaydi. Bunda kichik darslar tashkil qilinib, darsdan so'ng "O'quvchilar meni tushundimi?", "Ularning kayfiyati qanday edi?", "Bugungi mavzuga qiziqтира oldimmi?" singari savollar berish orqali bo'lajak o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyatini baholaydi, tanqidiy fikrlaydi va savollarga yechim topish uchun o'z ustida ishlaydi.

O'qituvchi empatiyasini (o'quvchi holatini tushunish va his qilish qobiliyatini) rivojlantirishning eng samarali usullaridan yana biri bu – "Rollar almashinuvi" (Aksi-sado) metodidir. Bu metod o'qituvchiga dars vaqtida o'quvchi o'rniga o'zini qo'yib fikrlashni, muammolarga bolaning ko'zi bilan qarashni o'rgatadi. Bolaning his tuyg'usini va maqsadini tushunishda, harakatlarini baholashda, darsdagi kutilmagan vaziyatlarning kelib chiqish sababini aniqlashda va ijobiy qaror qabul qilishda bu metodning o'rne beqiyos.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, empatiya zamonaviy o'qituvchining ajralmas kasbiy sifati bo'lib, u o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida ishonch, hurmat va psixologik xavfsizlikka asoslangan munosabatlarni barpo etadi. Ilmiy tadqiqotlar empatik o'qituvchi ta'sirida o'quvchilarda stress va xavotir kamayishi, ta'limga qiziqish va motivatsiya ortishini isbotlagan. Suxomlinskiy ta'kidlaganidek, bolaning yuragiga yo'l uning kechinmalarini chuqur anglash orqali ochiladi — bu haqiqat bugungi ta'lim uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Refleksiya va rollar almashinuvi kabi amaliy metodlar bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchi dunyosini his etishga, o'z pedagogik faoliyatini tanqidiy baholashga o'rgatadi. Shu sababli empatik kompetentlikni o'qituvchi tayyorlash dasturlarining ajralmas qismiga aylantirish bugungi ta'lim tizimining dolzarb vazifasidir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abdullaeva B.S., Xoliqov A.A., Farsaxanova D.R., Muhammadiyeva S.V., Sheranova M.B. Umumiy peadgogika. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo. 2021
2. Ampofo J, Bentum-Micah G, Xusheng Q, Sun B and Mensah Asumang R (2025) Exploring the role of teacher empathy in student mental health outcomes: a comparative SEM approach to understanding the complexities of emotional support in educational settings. *Front. Psychol.* 16:1503258. doi: 10.3389/fpsyg.2025.1503258
3. Ge Y, Li W, Chen F, Kayani S and Qin G (2021) The Theories of the Development of Students: A Factor to Shape Teacher Empathy From the Perspective of Motivation. *Front. Psychol.* 12:736656. doi: 10.3389/fpsyg.2021.736656
4. Suxomlinskiy, V.A. (1977). Yurak yurakni qanday tarbiyalaydi. Toshkent: O'qituvchi.

² Ge Y, Li W, Chen F, Kayani S and Qin G (2021) The Theories of the Development of Students: A Factor to Shape Teacher Empathy From the Perspective of Motivation. *Front. Psychol.* 12:736656. doi: 10.3389/fpsyg.2021.736656